

# TONG yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

2011-yil  
22-avgust  
N:34  
(66835)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetası

## DUNYONI HAYRATDA QOLDIRGAN QIZ

Xalqimizda to'yga to'yna bilan borishdek ajoyib bir udum bor. Unqa amal qilgan yurtdoshlarimiz ayni faraxbaxsh kunlarda Mustaqillik bayramiga to'yonalar hozirlashyapti. Quruvchilar osmono'par, ko'rkam binolarni, yo'lsozlar yangi ko'prig-u ravon yo'llarni foydalanishga topshiriyaptilar. Kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarmiz ham barcha sohada qo'liga kiritayotgan yutuqlarini yurtimiz to'yiga tortiq qilmoqdalar.

Gler nomidagi musiqali akademik litseyning 6-sinf o'quvchisi Oqila MIRZOJAYEVA ana shunday iqtidorli, tirishqoq, izlanuvchan gizlardan biri.

U kuni kecha Italiyaning San-Bartomoleo al Mare shahrida bo'lib o'tgan «Giovani Talenti» 26-xalgaro yosh musiqachilar tanlovida qatnashib, pianino cholg'usi bo'yicha Gran Pri sohibasi bo'ldi.

Oqila qizimizni bu ulkan muvaffaqiyat bilan qutlaymiz! U bilan qilgan suhabatimizni gazetamizning navbatdagi sonida o'qisiz.

Iqtidor, ijod - Vatan sharifi,  
Barkamol avlod - davr talabi!

F SHOYODGOROV Z MUHSIMOVA olg'an surʼatlar

Ja'tilda miziqib dam oldik.  
Endi navbat o'qishga!



**Aziz bolajonlar, ta'til kunlaringizning tugasiga ham sanoqli kunlar qoldi.**  
**Uni maroqli o'tkazishingiz uchun hukumatimiz tomonidan barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Sizlarga yaxshi tanish bo'lgan «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi ham bu borada ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirdi.**

## BUNDAY YURTGA SOG'LOM AVLOD YARASHADI!

Jumladan, an'anani buzmagan holda, jamg'armaning «Tibbiy-ijtimoiy markaz»ida kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qtgan bolajonlar uchun «Sog'lom avlod» yozgi dam olish oromgohi tashkil qilindi. Oromgoh to'rt mavsumga mo'ljallangan bo'lib, u yerda Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi jami 200 nafar bolajonlar hordiq chiqarishdi. Bolajonlarning zerikib qolmasliklari uchun madaniy-ma'rifiy dasturlar, sport musobaqlari tashkillashtirildi, turli to'garaklar ular ixtiyorida bo'ldi. Dam oluvchilar jamg'arma «Tibbiy-ijtimoiy markaz»ining mala-kali shifokorlari nazoratida bo'ldilar. Shuningdek, «Sog'lom avlod

kent viloyatidagi «Oqtosh», «Kimiyoqarlar» oromgohlarida Samarqand, Buxoro, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridan 355 nafar kam ta'minlangan oila farzandlarining maroqli dam olishlari tashkillashtirildi.

Bundan tashqari, jamg'arma yurtimizning chekka hududlarida istiqomat qilayotgan tengdoshlarin-gizi ham e'tibordan chetda qoldirmadi. Jamg'armaning tibbiy-patronaj guruhi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri, Shumanay, Kegeyli, Qora-

o'zak singari tumanlaridagi oilalar farzandlarining sog'lig'i tibbiy ko'rildan o'tkazilib, sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha targ'ibot va tashvигot ishlari olib borildi va ularga tibbiy hamda xayriya yordamlari ko'rsatildi.

1993-yil 4-mart: Yurtboshimiz tomonidan «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis etish to'g'risida»gi Farmon chiqarildi.

doirasida kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, yetimlar, yolg'iz qariyalar holdan xabar olinib, xayriya yordamlari berildi.

Bunday tadbirdan asosiy maqsad, yosh avlodning bekam-u ko'st unib-o'sishi, kelgusida yurt koriga yaraydigan munosib avlod bo'lib voyaga yetishidir. Mam-lakatimiz navqiron yosha to'lmoqda. Bunday yurtga har tomonlama yetuk, bilimli va sog'lom avlod yarashadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

## QO'SHALOQ BAYRAM MUBORAK!



### EZGULIKLAR ORALAB...

Vatan madhini kuylash uchun qo'limga qalam oldim. Negadir qalbimni hayajon qamrab oldi. Yoxud qo'rquv bosdi, desam ishonasizmi, do'stim? Chunki Vatan haqida kuylashning, hech kim aytmagan yangi fikr, so'z aytishning o'zi bo'lmash ekan. Dilda samimiylikdan yiroq ketolmay qolarkansiz. Barchamizga kuch-quvvat, g'ayrat, shijoat baxsh etayotgan O'zbekiston dunyodagi eng qadimiy va betakror o'lka. Demakki, biz tarixning yurak qatlariда yashayapmiz. Menimcha, bu buyuk baxt! Ajoddolamiz izidan borib, elimiziga munosib farzand bo'laylik! So'zimizni saralab, ezguliklar oralab yursak, yurtga chin farzand bo'lamiz. Zero, yaxshilikdan ulug' so'z yo'qdir dunyoda!

Shalola JUMAYEVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon  
tumanidagi 63-ixtisoslashgan  
maktab-internat o'quvchisi

Odatda biz o'quvchilar har yili yangi o'quv yilini o'zgacha bir hayajon bilan kutamiz. Bu yil esa hayajonimiz ikki hissa ortiq! Chunki Mustaqillik bayramimiz hamda Ramazon hayitini nishonlash arafasida turibmiz. Maktab formamizni, o'quv anjomlarimizni taxt qilib, «Bilimlar kuni»ni intiqlik bilan kutyapmiz.


H a d e m a y , respublikamizning barcha ta'limgan maskanlarida yang-raydigani birinchi qo'ng'iroq sadosi, qalblari faxr va ifti-

xorga to'lib, yurtimiz madhiyasini kuylayotgan o'quvchilar ovozi hozirdanoq qalbarni hayajonga solyapti. Yanada ko'rklashib, orolanib o'quvchilarni o'z bag'riga chorlayotgan bilimlar qasridagi birinchi saboqning mustaqillikka bag'ishlanishida ham ajib bir hikmat bor.

Ko'zlarida iftixon tuyg'usi balqib turgan mehridaryo ustozlarimizni, qalblarida Vatanga muhabbat hissi barq urchan bilimga chanqoq tengdoshlarimni Istiqlol ayyomi bilan muborakbos etaman!

Munisa YOQUBJONOVA, poytaxtdagi 132-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

### KITOBLARNI SOG'INDIM



O'quvchilik paytlarimda juda ko'p kitob o'qiganman.

Maktabimiz yonida tuman Bolalar kutubxonasi bo'lardi. U yerda Ra'nixon va To'xtaxon opalar ishlashardi.

Qachon kutubxonaga kirmsam, meni iliq qarshi olib, «Siz shoirimizsiz», deya kitoblar bilan bema'lom tanishishimga ruxsat berishardi.

Kutubxonada adiblarning tug'ilgan kunlari bag'ishlab tadbirdar tashkil qilinardi. Gazeta va jurnallarning bir necha yillik taxamlari ham turardi.

Xullas, bu nurxona ajoyib maskan edi.

Maktabni bitirib, harbiy xizmatga


chaqirildim. Oradan ikki yil o'tgach, uya qaytib, kitoblarni sog'inib, maktab tomon yo'l oldim.

Ammo... u yerda mening mo'jazgina kutubxonam yo'q edi. Uning o'mida chuqurlikni ko'rdim.

Maktabdagilardan so'rasam, ular kutubxonasi yaroqsiz holatga kelib qolganligi sababli buzib tashlangani, kitoblarning yarmi aholi yashaydigan ko'p qavatlari binoga, yarmi tuman kutubxonasi joylashtirilganligini aytishdi.

Bugun yosh shogirdlarimiga juda ham havasim keladi. Dunyo andozalarini darajasidagi axborot resurs markazlari ular xizmatida. Istagan kitoblar bir zumda muhayyo qilinadi. Tilagim – kutubxonasi ularni ohanraboday o'ziga tortuvchi maskan bo'lib qolsin.

Abdumann TOSHEMIROV, Farg'onan viloyati, Bag'dod tumanidagi 1-umumta'l'm maktabi o'qituvchisi



## BU OLAMDA YAGONAMSAN!

Bir mayizni bo'lishgan el,  
Oyday ozib, to'lishgan el,  
Bag'rikeng-u mardonamsan –  
Bu olamda yagonamsan!

«Transportchi avlod» nomli sog'-lomlashtirish oromgohida taniqli shoir Bobur Bobomurod o'qigan ushbu she'rni bolajonlar qarsaklar bilan kutib olishdi. Ta'tilning so'nggi kunlarini oromgohning 4-mavsumida mazmuni o'tkazayotgan o'quvchilar uchun bu kun juda maroqli bo'ldi-da!

Yurtimiz mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan «Yurtim, qutlug' yoshing muborak!» nomli tadbirni Yunusobod tumani Ma'naviyat targ'ibot markazi rahbari Nigora opa Abdurahmonova ochib berdilar.

Taniqli san'atkorlar Nargiza Abdullayeva, «O'zbeknavo» estrada xonandalari, Hamid Olimjon nomidagi madaniyat uyi san'atkorlari o'z chiqishlarida Vatanimiz O'zbekistonni, Istiqlohlarni madh etilar. Qiziqarli savol-javoblarda qatnashgan bilag'on bolalar Yunusobod tumani hokimiyyati

tomonidan sovg'alar bilan taqdirlanildilar. Shodliklari ichlariga sig'mayotgan o'quvchilarini suhbatga chorladik:

– Men Marhabo Qarshiboyeva, Ohangaron shahridagi 7-maktabning 5-sinf o'quvchisiman, – deya o'zini tanishtirdi suhbatdoshimiz. – Bu yil oromgohda maroqli dam oldim. Ayniqsa, bugungi uchrashuv kayfiyatimizi yanada ko'tarib yubordi. Sevimli shoirimiz Bobur Bobomurod, aktrisa Nargiza Abdullayeva bilan maroqli suhbat qurdik.


– Mustaqil O'zbekistonimizning qutlug' to'yi arafasida tashkillashitirilgan ushbu tadbir biz dam oluvchilarni yanada ruhlantirdi, – deydi Ohangaron shahridagi 11-maktab o'quvchisi Sohib Egamkulov.

Quvnoq kuy va qo'shiqlarga raqsga tushgan bolajonlarni ko'rib, bizning ham kayfiyatimiz ko'tarildi. Mustaqil O'zbekistonimizda kamol topayotgan baxtiyor avlodga omad va baxt tilab, ular bilan xayrashdik.

Gulyuz BAHODIR qizi



Suratlar muallifi: Zuhra MUHSIMOVA



## YO'LDAQI O'YLAR

Xalqimizda «Yo'l qurban odamning yo'lini beradi» degan naql bor. Yaqinda vodiylar safaridan poytaxt tomon yo'l olganimda, xalqimizning har bir naqlida olam-olam hikmat borligiga yana bir bor amin bo'ldim. Yoshlar saksondon oshgan, lekin bir yigitchalik g'ayrati bor nuroniy bir otaxon, chamasi sakkiz yoshlardagi qizaloq hamda o'n yoshlar atrofidagi, ko'zlar chaq nab turgan bolakay bilan bizga hamroh bo'lishdi. Ravon yo'lida shitob bilan olg'a intilayotgan «Nexia» Qamchiq dovoniga qarab o'rimalay boshlaganida, orqada o'tirgan qizaloqning qo'ng'iroydoy tovushi yangradi:

– Bobojon, Toshkentga yetay dedikmi?

Bu gapni eshitib, haydovchi

ikkimiz baravar kulib yubordik. Otaxon ham yayra kuldilar.

– Ona qizim, endi yo'lga tushdik-ku. Hali bir soat ham yurGANIMIZ yo'q. Mana shu tog'ni oshib o'tsak bo'lgani.

Qizaloqning gapidan so'ng suhbatimiz jonlanib ketdi. Ilgari yarim kun poyezdda yoki sakkiz-o'n soatlab avtobusda yurib, poytaxtga yetgan bo'lsak, hozirda uch soatda Toshkentdamiz. Vodi bilan poytaxt orasi xuddi bir qadam bo'lib qolganday. Tog'lar bag'rini tilib o'tgan ravon yo'ldan o'tib borarkanmiz, beixтиyor shu yo'lning yigirma yil oldingi holati ko'z oldimiga keldi. O'nqircho'nqir, chang-to'zonli yo'l. Kattaroq mashina kelib qolsa, qarshi tomondan kelayotgani chetga

o'tib, to'xtab turardi. Hamma haydovchilar ham yurak yutib dovonga yo'l solisholmasdi. Mashinamiz tog'ning eng baland nuqtasiiga joylashgan biringchi yer osti yo'liga yaqinlashganda, bolajonlarning quvonchini bir ko'rsangiz edi! Undan-da uzun ikkinchi yer osti yo'ldan o'tganda, otaxon ham nevaralariga qo'shilib zavqlandi, serajin yuzida iftixor tuyg'usi balqidi. Bugungi kunda dovon yo'lida

bunyodkorlik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari har qachongidan ham qizg'in bormoqda. Tog' yonbag'rilarida barpo etilgan archazorlar, yaproqlari yengil shababada asta tebranib turgan terakzorlar yaqin yillarda dovon yo'lini yanada ko'rkamlashtirib yuborishi shubhasiz. Go'zal tabiat manzarasiga mahliyo bo'lib, tog' yo'lini ortda qoldirganimizni ham sezmay qolibmiz. Otaxon bilan ham ancha hamsuhbat bo'ldik. U kishining yana bir gapi dilminda o'mashib goldi:

– Qarang-a, – dedi u kishi nevarasining boshini silarkan. – Uch yuz chaqirim yo'lni bosib o'tganimiz ham sezilmadi. Ilgarigi paytlar bo'lganda, odam ezilib ketardi. Yo'lning ravonligini qarang! Yo'l qurib, odamlarning uzog'i ni yaqin qilgan yaxshi insonlar hech qachon kam bo'lmagan.

– Mashinalarimiz ham zo'r-da, – dedi haydovchi rulga sekingina urib qo'yarkan. – Bu mashina yerning samolyoti...

Darhaqiqat, qisqa vaqt ichida yo'llarimiz jahon talablari darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimiz avtomobil ishlab chiqaruvchi yigirma sakkizta nufuzli davlat orasidan munosib o'r'in oldi. Bu mulohazalar ulkan ishlardan ayrimlari, xolos. Olis yo'l davomida ko'ngilga kelgan gaplar. Istiqlol tufayli turli sohalardan olamshumul ishlar amalga oshirildi. Bunday ishlar esa juda ko'p. Uzundan-uzun temiryo'llar, ufqqa qadar cho'zilgan bog'lar, bulutlar bilan bo'yashgan muhtasham binolar... Ular haqida zukko o'quvchilarimizdan ham eshitishni juda-juda xohlardik.

Yusuf ABDULLAYEV



Ta'tilning zavqli onlari oxirlab borar ekan, o'quvchilar qalbini yanada kuchliroq hayajon bosadi. Boisi, ular go'shaloq bayram - Mustaqilligimizning yigirma yilligi hamda yangi o'quv yilini zavq-shavq bilan kutib olishga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Bu borada tengdoshlarining nimalar deyishyapti?

## IBRATLI - SO'ZI YOQIMLI

«Ibratli o'quvchi» nomini olish oson emas, buning uchun a'lo baholarga o'qishning o'zi kifoya qilmaydi. O'quvchining namunalni xulqi, chiroyli odobi va albatta o'tkir bilimi bo'lishi shart. Ana shunday nomga munosib topilgan Sardorbek Hakimov Buxoro viloyati, Kogon shahridagi 7-umumta'l'm maktabining 7-sinf o'quvchisi. Uning «Faxriy yorliq»lari juda ko'p. Chunki maktab, tuman, viloyatda o'tkaziladigan hech bir tanlov usiz o'tmaydi-da!

- Bo'sh vaqtlarimni kutubxonada o'tkazishni xush ko'raman, - deydi Sardorbek. - Kitob o'qish menga juda yoqadi. Geografiya faniga qiziqishim sabab «Bilimlar sinovi»da bilimimni sinab ko'rdim. Tuman, shahar bosqichlaridan o'toldim, xolos. Shunda tushundimki, hali juda ko'p o'qishim kerak ekan. Bu gapni ustozim Roziya Xayrullayeva ham doimo takrorlaydilar. Ularning beminnat yordamlari tufayli o'qishga, o'rganishga ishtiyoyqim yanada ortyapti. Nasib bo'lsa, yangi o'quv yilda bilimimni mustahkamlab, navbatdagi sinovda hech kimdan kam emasligimni, albatta, isbotlayman!

Ishtiyoyq sizni hech qachon tark etmasin, hamisha ibratli o'quvchi bo'lib yuring, Sardorbek!

Tengdoshlarining ijodi

### KELAJAK



Erkdan kulib kamolimiz,  
Nurafshondir iqbolimiz.  
Go'zallahib jamolimiz,  
Biz kelajak niholimiz.

Istiqoldan yorug' yuzim,  
Ta'riflashga yetmas so'zim.  
Oqlagaymiz non-u tuzing,  
Biz kelajak niholimiz.

O'zbekdirmiz, qalbda g'urur,  
Odimlaymiz o'ktam, mag'rur.  
Bu damlarga berar surur,  
Biz kelajak niholimiz.

Zebo TO'XTAYEVA,  
Navoiy viloyati, Xatirchi  
tumanidagi 24-umumta'l'm  
maktabi o'quvchisi

## KELAJAKning Buguni

- Insonga umr berilar ekan, uni mazmunli, ibratli tarzda o'tkazish lozim, - deydi Xorazm viloyatidagi 21-tarix faniga ixtisoslashgan maktabning 9-sinf o'quvchisi Dildora Zaripova. - Buning uchun esa yoshlikdanoq yaxshi xulq, mustahkam bilim egasi bo'lishga intilish darkor.

Hukumatimiz tomonidan biz yoshlari uchun benihoya katta imkoniyatlar yaratilgan. Viloyatimizda yagona hisoblangan tarix faniga ixtisoslashgan maktabimizda ham barcha sharoitlar yetarli. Maktabdoshlarimning viloyat va respublika tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirot etib kelishayotganining o'ziyoq yuqorida so'zlarim isbotidir.

Mening viloyat «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakatining «Kamalak» bolalar tashkiloti viloyat Sardorlar Kengashi raisi ekanligim esa zimmamga katta mas'uliyat yuklaydi.

Viloyatimiz «Kamalak»chilari Istiqlolimizning 20 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan «Yoshlik shijoati», «Shahrim gullari», «Ustozlarga ehtirom» kabi tadbirdarlarning quvnoq va qiziqrarli o'tkazilishida bosh-qosh bo'lishyapti. Bu kabi tadbirdarlarda Yurtboshimiz so'zlarini doimo qulog'imiz ostida jaranglab turadi: «O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim».

## BAYRAMGA SO'VE'AM BOR

Irodaxon qo'shaloq bayramni munosib qarshi olish uchun harakatni anche ilgariroq boshlab yubordi. Shu sababdan ham uning yozgi ta'tili juda mazmunli o'tmoqda.

- Ta'tilda to'qishni o'rganib oldim, - deydi Kitob tumani, Hayrabod qishlog'idagi 36-umumta'l'm maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Irodaxon Ashurova.

- Istiqlolimizning 20 yilligiga atab gilamcha to'qiyapman. Maktab boshlanganda esa dugonalarimga ham to'qishni o'rgataman. Bu yilgi ta'til menha katta imkoniyatlar eshigini ochganidan juda xursandman.

Ta'til ham o'qish, o'rganish fasli-da! Uni bekor o'tkazgan o'quvchi ko'p narsa yo'gotadi. Buni Irodaxon juda yaxshi biladi.



Feruza SOYIBJON qizi

### UMR

Inson umri oqar bir daryo,  
Fasllarga qiyosdir go'yo.  
Bolalik bahorga o'xshaydi,  
Yozida o'smirlilik yashaydi.  
Sarhisob umrning kuzidir,  
Keksalik boshda qor-qishidir.

Umida NORQOBILOVA,  
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi  
tumanidagi 54-maktab o'quvchisi

### BOKIRA TUYG'ULAR

Qalbimning chechagi, ko'nglimga malham,  
Gullar yanog'ida porlaydi shabnam.  
Bokira tuyg'ular qurshaydi meni,  
Qarog'imda gullab ketadi olam.



Seldayin keladi yurakdan ilhom,  
Qalbimda uyg'onar ma'suma hislar.  
Tabiat chiroyi buncha ham go'zal,  
Jannati iforlar, ajib bir hislar.

Pokiza tilaklar mezonday uchar,  
Nafosat gulshani, gurkirar shoyon.  
Qalblarda chechaklar so'nmasin hech ham,  
Qalblarda abadiy bo'lsin namoyon.

Madinabonu NABIYEVA,  
Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahridagi Jahon Otin  
Uvaysiy nomli adabiy to'garak a'zosi

BO'YLARIMGA  
BO'Y  
QO'SHILSA...



Bo'ylarimga bo'y qo'shilsa quvongan,  
Men shodlansam, quvonchdan ko'zi yongan,  
Bemor bo'lsam, hasratlar chekib tolgan,  
Siz hammadan mehribonsiz, onajon!

Uzun sochim silab, kulib qaraysiz,  
Tunlaringiz oppoq tongga ulaysiz,  
Ona, asli farishtaga o'xshaysiz,  
Siz hammadan mehribonsiz, onajon!

Yashnatguvchi asl bog'bon o'zingiz,  
Yoritguvchi nur-charog'bon o'zingiz,  
Keragimsiz, jonga darmon o'zingiz,  
Siz hammadan mehribonsiz, onajon!

Husningizni bo'lib oldik so'ramay,  
Goh sho'xlilalar qildik sizni ayamay,  
Onajonim, boringizdan aylanay,  
Siz hammadan mehribonsiz, onajon!

Donoxon BAXTIYOROVA,  
poytaxtdagi 260-maktab o'quvchisi

# «Chotqol»

## BIR UMRGA YODIMDA QOL!

Hech qulog 'ingizga chalinganmi,  
Toshkent viloyatida joylashgan  
Bo'stonliq tumanining ob-havosini  
nomdor dam olish  
maskanlari bo'lgan  
ayrim davlatlar  
havosidan ham  
yengilroq, deyi-  
shadi. Ko'plab  
oromgohlar,  
dam olish  
maskanlarining  
aynan shu so'lim  
go'shada joylash-  
gani ham bejiz  
emas, albatta.

O'quvchilarning  
yozgi ta'til kunlarida u  
yerdagi oromgohlarda  
bo'lib, lavhalar tayyorladik, o'quvchilarning ta'til  
taassurotlari bilan o'rtoqlashdik.

Yusufxona qishlog 'ida joylashgan «Chotqol»  
nomli bolalar sog'lomlashtirish oromgohida bu  
yil to'rt mavsumda Toshkent, Buxoro,  
Qo'nig'iroq, Xorazmdan kelgan 3000 ga yaqin  
o'g'il-qiz ta'tilni maroqli o'tkazdi.

Navbatdagi sahifamiz ana shu so'lim  
maskanga bo'ldi.

– Juda omadli ekanmiz, «Kichik biznes va  
xususiy tadbirdorlik yili» munosabati bilan  
«Biznes yoz –2011» tadbirdi o'tkazilayotgan  
kunda kelibmiz, – dedik quvonib.

– Aslida oromgohimizda biror-bir tanlov,

Respublikamizning  
barcha o'quvchilari qatori  
farg'onalik o'g'il-qizlar ham yozgi  
ta'tilni maroqli o'tkazib, yangi  
o'quv yiliiga yangi kuch-g'ayrat  
bilan hozirlikni boshlab  
yubordilar.



Marg'ilon shahridagi 1-«Mehribonlik uyi»ning 135 nafar tarbiyalanuvchilari Quvasoy shahri, Lashkar qishlog 'ining xushmanzara, mevali daraxtlar bilan burkangan «Mehnat va rohat» oromgohida miriqib dam oldilar.  
– Bu yerda bolalar sport bilan shug'ullanishlari uchun voleybol, basketbol, futbol, stol tennisi, bel olish kurashi to'garaklari muntazam ish olib bordi, – deydi oromgoh rahbari Kamoliddin Yoqubov. – Dam oluvchilar dasturxoniga har kuni oromgoh bog'ida pishib yetilgan sarxil mevalar, poliz mahsulotlarini tortiq qildik.

Oromgohda faoliyat ko'rsatayotgan bichish-tikish, qo'l mehnati, duradgorlik, kompyuter savodxonligi kabi to'garaklarda o'quvchilar hunar o'rganishdi, saboq olishdi. «Oromgoh malikasi», «Balli, yigitlar!», «Siz qonunni bilasizmi?», «Quvnoqlar va zukkolar» kabi turli bellashuvlar, ko'ngilochar o'yinlar o'tkazilishi ta'tilga mazmun baxsh etdi.



## QUVNOQ YOZIM O'TDI SOZ!



tadbir o'tkazilmaydigan kunning o'zi yo'q, – deya bizni oromgoh bo'yab sayrga chorladi kutubxonasi mudirasi Aziza YO'LDSOSHEVA. – «Biznes yoz –2011» rejasiga ko'ra oromgohdagi guruhlar «Aksiyadorlik jamiyatlar» deb nomlanib, har biri hisobiga bank raqamlari ochildi. Ular tadbirdorda qatnashib, o'z guruhlari banki hisobiga bonuslar to'plab bordilar. Mavsum davomida to'plangan bonuslar hisoblab chiqilib, g'oliblar aniqlandi. «Eng tejamkor guruh», «Eng faol guruh», «Eng ishbilarmon guruh» nominatsiyalari bo'yicha g'olib chiqqan guruh a'zolari to'plagan bonuslarini hovuzda cho'milishga, qo'shiq, oshxonada taom buyurtma qilishga sarfladilar.

Kuni kecha mustaqilligimizning 20 yilligi va oromgohimizning 25 yilligiga bag'ishlangan «Mustaqillik mening taqdirimda» hamda «Chotqol» do'stlarni chorlaydi» nomli bolalar ijodiy festivali o'tkazildi. Festivalda ishtiroy etgan 650 dan ziyod dam oluvchilarga oromgoh surati, nomi tushirilgan futbolka va bosh kiyimlar sovg'a qilindi. Qo'shni oromgohlardan kelgan mehmonlar bolajonlar ijrosidagi quvnoq kuy va qo'shiqlar, raqslar va sahna ko'rinishlarini maroq bilan tomosha qilishdi. Ayniqsa,

kattakon bayram torti hammani hayratlantirdi. Festival so'ngida so'zga chiqqan oromgoh rahbari Erkin Dehqonov faol o'quvchilarga esdalik sovg'alari topshirdi...

– Biz hayotimizdagagi eng quvonchli kunlardan birini shu yerda nishonladik! – deyishdi tug'ilgan kunlari oromgohda dam olish kunlariga to'g'ri kelib qolgan o'quvchilar mammuniyat bilan. – Biz uchun to'kin dasturxon bezatildi, shirinliklar, sovg'a-salomlar ulashildi. Ayniqsa, tarbiyachi va yetakchilarimiz ijrosidagi «Yetakchilar konserti» bida katta taassurot qoldirdi. Uddi bolalardek kiyinib oлган yetakchilarimiz kuylagan qo'shiqlarni tinglash, bosh tarbiyachimiz Gulchehra opa Azizova, oromgoh rahbari Erkin aka Dehqonovlar ijrosidagi sahna ko'rinishlarini tomosha qilish har kuni ham nasib qilavermaydi-da, axir! Qo'ying-chi, tug'ilgan kunimiz uydagidan ham qiziqarliroq o'tdi...

Murg'ak qalblari moviy osmondekk beg'ubor, buloq suvidek musaffo bolajonlar quvonchiga sherik bo'lishdan ham ortiqroq baxt bormi dunyoda? «Chotqol» – bir umrغا yodimda qol! deya oromgoh bilan xayrashayotgan o'g'il-qizlar ko'zidagi quvonchni ko'rib, ich-ichimizdan ana shu totli tuyg'uni his qildik.

ZAMONBEKA

## SO'LIM OROMGOHLARDA

Oltiariq tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli «Yulduz» bolalar oromgohida dam oлган o'quvchilar 20 dan ziyod tarbiyachi va yetakchilar boshchiligidagi qiziqarli uchrashuvlar, musiqali kechalar, sport musobaqlari, ziyoratgoh va qadamjolarga sayohatlar yushtirishdi.

Dam oluvchilarning mavsumlar ochilish va yopilish marosimlaridagi badiiy musiqali chiqishlari otagonalar va mehmonlarga juda manzur bo'ldi.

Marg'ilon shahridagi 23-, 25-, 32-maktablarda tashkil qilingan oromgohlarda har mavsumda 250 nafar bolajonlar sog'lomlashtirildi.

Shahar hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya tomonidan ishlab chiqilgan «Yoz –2011» chora-tadbirlari dasturiga asosan bolalarni sog'lomlashtirish maqsadida hokimlik va homiy tashkilotlari tomonidan barcha sharoitlar muhayyo qilindi. Shuningdek, shahar tashqarisidagi oromgohlarda 660 dan ziyod bolalar dam olishdi. Ularning 400 nafari 1-«Mehribonlik uyi» tarbiyalayuchilaridir.

Bu kunlar bolalar xotirasida eng zavqli damlar sifatida saqlanib qolishi shuhhasiz.

Muhammadjon MAHMUDOV, Marg'ilon shahri

# Bayram tabrigi



Xudoibergi TO'XTABOYEV,  
O'zbekiston Xalq yozuvchisi

— O'tgan yigirma yil ichida mamlakatimiz har jihatdan yuksaldi. Mustaqillik sharofati bilan millatimiz o'zligini anglatdi. Natijada, yurtimiz har sohada katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Yurtboshimizning «Biz hech kimdan kam emasmiz, kam bo'lmaymiz ham!» degan so'zlarini qalbdan his qilib, iftixor bilan yashash baxti barchamizga nasib etdi.

Qadrli yurtdoshlarim, barchangizni mustaqil O'zbekistonimizning 20 yilligi bilan muborakbos etaman!

## YIL ISTAGI

Bu yurt ertasidan xabar — Ko'kda zarrin hilo bo'lgay. Yana yashnar dala-dashtlar, Havo sof, suv zilol bo'lgay.

Olloh nazar qilgan yer bu, Mudom tinchlik g'amin yer u, Kam emas, kamtarin el bu, Ki kamtarga kamol bo'lgay.

To'kib ter, tinmagay joni, Osmonga ustun xirmoni, Ochiq qo'li, dasturxonni, Butun noni halol bo'lgay.

Yuksalur, kuch olib kunda, Oydayin balqar ochunda, Bobolar barhayot bunda, Bolalar barkamol bo'lgay!

Dilshod RAJAB



## O'ZBEKISTON

Ne-ne ta'rif-tashbeh bitdilar, Mangu ilhom, mangu imkonsan. Ikkı daryo oralig'ida Jo'shib yotgan ulkan ummonsan.

Bag'ringni dur-marvarid kabi Ezguliklar etmishdir maskan. Yomonlig-u yovlar yo'liga Ikkı daryo ko'ndalang har dam.

Boqib bag'rim to'lur ziyoga, Sen — ko'zimning oq-qoraligi. Alishmasman ikki dunyoga Ikkı daryo oralig'ini!

# TEATR - hayot sahnasi

OO YOL!

Teatr — bu insoniyat tarixidagi eng birinchi san'at markazi. Teatr san'ati bunyod bo'lgan vaqtidan boshlab, insonlar hayotga o'zgacha nigoh bilan nazar tashlay boshlashgan, uni turmush tashvishlaridan bir necha muddatga xoli qiluvchi maskan deb bilishgan. Aslida ham teatr insonni ruhan poklovchi, uning dunyoqarashini kengaytirib, hayotga yorqin nigoh bilan qarab, har qanday voqeadan o'ziga xos xulosa chiqarishni o'rgatuvchi san'atdir.

Teatr insonni ma'naviy yetuklikka eltishga xizmat qilgani uchun bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda.

Shunday ekan, bu san'at turining eng asosiy va eng nozik jihatlarini yosh avlodga ham o'rgatish lozim.

Menimcha, biz yoshlarga teatr haqida saboq berishni maktab davridanoq boshlash kerak. Odadat, maktab rahbariyati o'quvchilarning teatr haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun tez-tez spektakllar namoyishiga olib borib turishadi. Bu ham samarali yo'l, albatta. Ammo buning o'zi kamlik qiladi. Teatr haqida o'quvchiga dars sifatida ma'lumotlar berib

## BOLAJON HAYAJONI

Qayon boqsam: yangilik!  
Boshim aylanib ketdi.  
Shahrimni taniyolmay,  
Yuragim o'yab ketdi.

Shu yaqin oralarda,  
Toshkentni kezmabman-da.  
Shuncha saroy o'sganin,  
Ko'rmabman, sezmbabman-da!

Bu yangi oq qasrlar,  
Qaysi oyda yuksalgan?  
Manov elektrovoz  
Qachon kelgan vokzalga?

Navoiy ko'chamizni  
Go'zal qipmiz bunchalik!  
«Spark» degan moshinlar  
Ko'payibdi shunchalik!

Hovuzli sportzal,  
Qurilibdi maktabda.  
Suzishga endi men ham  
Qatnashaman, albatta.

Shu Vatan menikidi,  
Yuksalyotgan samoga.  
Tanitgayan men endi,  
Yurtim nomin dunyoga!



## ISTIQLOL ILHOMLARI

Miraziz A'ZAM,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosizi



## HARBIYLIKKA O'QIYMIZ

Bir sinfdan uch bola,  
Harbiylikka ahd qildik.  
Turli harbiy fanlarni  
Egallashga shahd qildik.  
Qismilarga ajratib,  
Yig'aman avtomatni.  
Qo'limda durbin bilan  
Hushyor saqlayman sarhadni.

Zirhli moshin, tanklarni,  
Haydab yurajak Elbek.  
Zirillatib yernarni  
Na'ra taratib sherdek.

Botir esa sakraydi,  
Reaktiv uchoqdan ham.  
Desantchi bo'lib saqlar  
Yurtning tog'larin bardam.

Lekin bosqin ko'zlamas  
Biz — uch do'sting hech biri.  
O'ylaganimiz faqat —  
Ona Vatan tinchligi.

## HOSIL BAYRAMI!

Bir yoqda paxta xirmon,  
Bir yoqda g'alla xirmon,  
Shodlikdan yangrar har yon —  
Bugun hosil bayrami!

Dehqonning ko'ngli yorug',  
Bog'bonning ko'ngli yorug',  
Elning suprasi to'lug',  
Bugun hosil bayrami!

Gurvak qovunga qarang,  
Sharbatga to'la, tarang.  
Yorilmay turar arang,  
Bugun hosil bayrami!



Kunday rangin olmalar,  
Tergan beli tolmlalar,  
Peshtaxtada tovlanar,  
Bugun hosil bayrami!

Bir bosh uzum bir kilo,  
Billur qandildir go'yo,  
Asaldir ta'mi, illo,  
Bugun hosil bayrami!

Meva-cheva har taraf,  
To'ymaysan qarab-qarab,  
Bulbul kabi chah-chahlab,  
Sayravoring keladi,  
O'ynavoring keladi...  
Bugun hosil bayrami!

borilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Teatr saboqlarining samarali natijalar berishini poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 217-maktab qoshidagi drama to'garagi misolida ko'rishimiz mumkin.

Umida Oripova rahbarlik qilayotgan ushbu drama to'garagiga «Oxideya» nomi berilgan.

To'garakni tashkillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarning teatr san'ati haqidagi bilimlarni oshirish, bo'sh vaqtlanini mazmuni va maroqli o'tishini ta'minlashdan iboratdir.

Maktabning rahbar o'rinosbosarlari Nargiza Tursunovna va Komila Muxtorov-nalar «Oxideya» jamaosini doimo qo'llab-quvvatlab kelmoqdalar.

To'garak a'zolari darsdan bo'sh vaqtlarida maktabning tantanalar zalida mashg'ulotlar o'tkazishadi.

O'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishga, nutqini rivojlantirishga hissa qo'shayotgan bunday ibratlari ishlar boshqa bilim maskanlarida ham amalga oshirilsa, ayni muddao bo'lardi.

Mohinur AHMADJONOVA,  
A.Sirojiddinov nomli akademik  
litsey o'quvchisi



Xabaringiz bor, Xalq ta'limi vazirligi mutasaddiligidagi Respublika bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Tong yulduzi» Respublika bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida yurtimiz mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» nomli Respublika ijodiy ishlari tanlovi e'lon qilingan edi. Shu kunlarda tanloving yakuniy bosqichi o'tkazilmoqda.

Tanlov o'tkaziladigan ma'naviyat dargohi – Respublika bolalar kutubxonasi kelayotgan maktublar oqimi hamon kamaymayapti. Yurtimizning turli go'shalardan o'quvchilar yo'llayotgan elektron jo'natma va maktublarda ona Vatan manzaralari, mustaqillik haqidagi beg'ubor tuyg'ular qalamga olinadi.

Bolakay maktab partisidanoq o'zi tug'ilib o'sgan ona zamini haqida qalam tebratishga hozirlanar ekan, albatta, bu tuyg'ular samimiyligiga, beg'uborligiga amin bo'lasan kishi. Ularning ijodi nekbinlikdan dalolat berib turibdi.

Barkamol shaxs tarbiyasida Vatanni sevish, uning tarixini o'rganish muhim o'rinnutadi. Bunday tadbirlarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad kitobxon bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz va



inson manfaatlari, xususan, yosh avlodni mustaqil, teran fikrlaydigan, har tomonlama barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishdeq ezgu maqsad mujassam ekani e'tirof etilayotgan ayni damda, Respublika bolalar kutubxonasida amalga oshirilayotgan ishlarni iibrat qilsa arzysi.

Davronbek RAJABOV

qadriyatlarimizni ular ongiga singdirish, qalblarida kindik qoni to'kilgan zaminga muhabbat tuyg'ularini shakkantirishdan iborat.

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlari ko'rik-tanloving yakuniy tadbiri sentabr oyida Respublika bolalar kutubxonasing anjumanlar zalida bo'lib o'tadi, – deydi Respublika bolalar kutubxonasi ilmiy-uslubiy bo'limining boshlig'i Nazira Abdusamatova.

G'oliblar Diplom, sertifikat hamda esdalik sovg'alarini bilan taqdirlanadi. Ularning ijodiy ishlari «Tong yulduzi» gazetasida chop etiladi.

Ha, turfa fikrlar, hayot haqidagi beg'ubor qarashlarga ega o'quvchilarining fikr-mulohazalari, mashqlari ijodning shunchaki havas emas, balki mas'uliyat ekanligini anglashga undaydi.

Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida

marhumlarning oila a'zolari va muxlislar ishtirotida o'tgan xotira tadbirida unutilmas voqealar yodga olindi.

## ULAR BETAKROR EDILAR...

Qadrli futbolsevar bolajonlar! Har yili 11-avgust kuni Markaziy «Paxtakor» stadionida marhum futbolchilarga o'matilgan byustuning atrofi gulchamberlarga to'ladi.

An'anaga aylangan xotira tadbirida faxriy futbolchilar so'zga chiqib, samoda aviahalokatga uchragan «Paxtakor-79» a'zolarini ko'zda yosh bilan esga oladilar. Bu yil ham xalqimizning ardoqli futbol faxriysi Axbor ota Imomxo'jayev ular haqida to'lqinlanib she'r o'qidi. O'zbekiston futbol faxriyar Kengashi raisi Narimon ota Jalolov betakror futbolchilarni ismlarini yurak qatlariiga jolashtirganini ifoda etdi. Murabbiylar, yosh futbolchilar,

## TA'TIL BELLASHUVLARI

Poytaxtdagi 327-maktabda Istiqlolimizning 20 yilligiga bag'ishlangan sport bayrami bo'lib o'tdi. Besh tur bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlarda Yunusobod tumanidagi 21-, 220-, 235-, 265-, 302-, 313-, 327-maktablarning o'quvchilarini ishtirok etdilar. Stol tennisi, 60 metrga yugurish, shashqa, quvnoq startlar va mini-futbol bo'yicha o'tkazilgan bahslar hech kimni befarq qoldirmadi. Havaskor sportchi bolalarga tumandagi 19-BO'SM o'qituvchilarini hakamlik qildilar. Yakunlanib borayotgan yog'i ta'til kunlari bunday maroqli musobaqalarni tashkillashtirishda 317-maktab direktori Dilnoza Abdullayeva, direktor o'rinnbosari Ma'mura Mansurovaning hissalarini katta bo'ldi.



Muzaffar AHMEDOV

## DAVRIMIZNING DAVRONASIN SURMOQDAMIZ!

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

## BOBOLARNING ORZULARI USHALMOQDA

Jannat misol zamonda yashayapmiz, Bobolarning orzulari ushalmoqda. Hur Vatanda ildam qadam tashlayapmiz, O'zbek degan yurtim mening yashnamoqda.

Samarqandim sayyorasi charog'ondir, Nur sochmoqda Registonning minorlari. Bunday yurtning farzandlari bilag'ondir, Qo'lidan tushmas bobomeros hunarlari.

Toshkentimga havas qilar kelgan mehmon, Uning ko'rk-u jamoliga boqar hayron. O'zbek degan yurtim mening yashnamoqda, Keldi bugun shunday zamon, shunday zamon.

Hur diyorum yigirmaga kirdi bugun, Biz yoshlarning zamonomiz keldi bugun. Davrimizning davronasin surmoqdamiz, O'zbek degan yurtim mening yashnamoqda.

Shohista FAYZULLAYEVA, Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 47-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## INSON ODOI BILAN



Yaxshilik qiling.  
Chunki yaxshilik odobdandir.

Abdurahmon JOMIY

Agarda yaxshilik qila olmasangiz, hech bo'lmaganda, birovgaga zararizing tegmasin, yomonlik qilmang. Inson odobi bilan e'tibor qozonadi, u bilan go'zal. Odob kishilarning yurish-turishi, muomalasida ko'rindi. O'zgalarga yaxshilik qiladigan, kechirimli insonlar kam bo'lmaydilar. Aytaylik, siz o'z siringizni yaqin do'stingizga aytdingiz va uni boshqa bir sinfdoshingizdan eshitib qoldingiz.

«Voy, men uni do'stim deb aytgandim, u bo'lsa darrov boshqaga yetkazibdi», deya do'stingizdan xafa bo'lasiz. Ana shunda do'stlikka putur yetib, o'rtaga sovuqchilik tushadi. O'zgalar sirini saqlay bilish ham axloq-odob doirasiga kiradi.

Bolajonlar, do'stingiz sizga sirini aytса, zinhor-bazinhor boshqaga aytса ko'r mang. Tilingiz bilan dilingiz bir bo'lsin. Bunday insonlarning ko'nglida g'arazlik, hasad bo'lmaydi. Doimo yuzim yorug' bo'lsin desangiz, insonlarga faqat yaxshilik qiling!

OFTOBOYIM

O'quvchi yon daftariiga

# eqasam tónlar ziyib...

Poytaxtlik tengdoshingiz,

3-sinf o'quchisi Umida Amirova ta'til kunlarini besamar o'tkazmabdi: loyiha rahbari Prima Tatyana Yuryevna boshchiligida Tarvuzpolvon haqida loyiha yaratibdi. Yetti sahifadan iborat mazkur loyiha tarvuzning kelib chiqishi, Vatani, shifobaxsh xususiyatlari, uning inson salomatligini mustahkamlashdagi o'rni haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, 119 kilogramm kattalikdagi Karolina-Kross navli tarvuzning jahon rekordini o'rnatgani hamda ayni kunlarda uning 1200 dan ziyod turi 96 mamlakatda yetishtirilayotgani haqidagi ma'lumot hech kimni befarq qoldirmadi.

Umidaning gazeta va jurnalardan, kitoblardan, ensiklopediyadan to'plagan manbalarini o'qib, biz ham ko'pgina yangi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Masalan, tarvuzlarni bahorning so'nggi oyalarida, hatto qishda

*Suratni ko'riboq, gap qanday ne'mat haqida ketayotganini anglagandirsiz? Ha, barakalla, yam-yashil beqasam to'nini kiyib olib, qornini oftobda toblab, polizlar-u bozor rastalariga ko'rak berib turadigan Tarvuzpolvon haqida! Yozning ayni avj pallasida chanqab turganingizda, 80 foizi suvdan iborat huzurbaxsh rohatni his qilishingizni bir tasavvur qiling-a!..*

ham bozor va do'konlarda uchratish mumkin bo'lsa-da, avgust quyoshiba to'yinganlarini yeyish foydaliroq ekanligini, uning yurak qon-tomir, buyrak, ichak kasalliklariga shifo bo'lishini, tanadagi ortiqcha yog' miqdorini kamaytirishini ham bilib oldik. Buning uchun jazzi Umidadan minnatdormiz.

Xo'sh, aziz bolajonlar, Siz ta'tilni qanday o'tkazdingiz? Nimalar o'qidengiz? Bu haqida bizga, albatta, yozib yuboring.

O'z muxbirimiz



## SUDOKU

Bo'yvi va eni bo'ylab 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlar, shuningdek, 9 ta 9 xonalari ajratilgan bloklarda ham 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar takrorlanmasligi shart.

1	2	6	5	7	8			
9	3		1	2	7	8		
	7		2	3	6	5	1	
6	8		3	1	7			2
2	1	4			3	8	7	
3			8	4	2	1	6	
7	3	1	2	5		8		
4	6	2	1		7	3		
			7	3	6	1	2	4

3	1		7		9	4		
	7		4		1		3	
4		6		3		8		1
	1		7		2		9	
7		2		9		5		3
	4		3		8		1	
6		7		4		1		8
	9		8		7		6	
1		8		2		7		9

Tuzuvchi: F.ABDULLAYEV

**TONG yulduzi**

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kangashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga

qarashli bo'limagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Gulyuz ORIFJONOVA,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Svetlana INOMOVA,  
Odina JAMOLDINNOVA,  
Jahongir MUSAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rbinbosari),  
Feruza ADIROVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,  
Naivoj ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel/faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 31634  
Buyurtma N: J 2530



### TOSHBAQA UYASIDA

Shimoliy Amerikaning Sonor cho'lida yashovchi o'txo'r, imillagan gofer toshbaqa uya qazish bo'yicha champion bo'lishi mumkin ekan. U kuchli, keng old panjalari bilan chuqurligi 12 metrgacha bo'lgan uya qaziydi va kunning issig'ida shu yerda jon saqlaydi. Sonordagi ko'pgina jonivorlar goferlarning boshpanalariga kirib oladilar.

Toshbaqa uyasida kaltakesaklarni, kemiruvchilarni (masalan, quyonlarni), qurbaqlarni, ilonlarni uchritish mumkin.

### QURBAQALAR HAM «GAPLASHADILAR»

Erkak qurbaqlar vaqillashi uchun tomog'idagi maxsus ovoz xaltachalarini havo bilan to'ldirishi kerak. Bu juda baland ovoz chiqarishga yordam beradi. Erkak qurbaqlar o'z ovozlaridan urg'ochilarining ko'nglini olish va o'z hududini himoya qilish uchun foydalanshadi. Ba'zi zaharli qurbaqlarni nafaqat rangidan, balki vaqillashidan ham bilib olish mumkin.

DILOROM



Dorixonaga bir bolakay kirib keldi:

- Menga og'rigni qoldiradigan biron ta'beri bering.

- Qayering og'riyapti o'zi?

- Hozircha kech qayerim og'rimayapti.

Faqat kechqurun dadanga kundaligimni ko'rsatishim kerak.

Fayzulla ABDULLAYEV tayyorladi

### MUALLIFLAR DIQQATIGA:

«Tong yulduzi» gazetasiga maqola, xabar va boshqa badiiy asarlar yozganliklari uchun qalam qalam haqiqi 'lashga quyidagi hujjatlar talab etiladi:

1. Kattalar uchun pasport nusxasi; maktab o'qichilariga uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi, o'quv dargohi va mahalladan ma'lumotnomasi.

2. INN raqami.

3. Jamg'arib boriladigan nafaqa daftarchasidan nusxasi.

Ushbu hujjatlar nusxalari taqdim etilmasa, qalam haqiqi to'lanmaydi.